



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

2025 yil “18”noyabr

02-28/27821-son

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni
saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent
shahar sog‘liqni saqlash boshqarmalari**

**Vazirlik tasarrufidagi tibbiyot oliy ta‘lim
muassasalari va ilmiy tashkilotlar**

**K.S. Zairov nomidagi O‘zbekiston
Sog‘liqni saqlash muzeyi**

"Abu Ali ibn Sino (Avitsenna): Buyuk meros va Sivilizatsiya"
XIII Xalqaro Ibn Sino o‘qishlari ilmiy-amaliy anjumanini
o‘tkazish to‘g‘risida

KO‘RSATMA

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy tashkiliy tadbirlar rejasi ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. 2025-yil 21-23-noyabr kunlari Buxoro shahrida Ibn Sino jamoat fondi va Buxoro davlat tibbiyot instituti tomonidan Buxoro shahri, G‘ijduvon ko‘chasi 23-uy Institut binosida **"Abu Ali ibn Sino (Avitsenna): Buyuk meros va Sivilizatsiya"** mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazilsin.

2. Anjuman ishtirokchilari o‘rinlari taqsimoti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ibn Sino jamoat fondi boshqaruv raisi (N.Maxmudov), Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori (Sh.Teshayev), Fan-ta‘lim va innovatsiyalar boshqarmasi (O‘.Ismailov), Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (A.Alijanov) anjumanga puxta tayyorgarlik ko‘rgan holda, belgilangan muddatda yuqori ilmiy va tashkiliy saviyada o‘tkazilishini ta‘minlasin.

4. Buxoro davlat tibbiyot instituti (Sh.Teshayev):

sertifikatlarni tayyorlash va anjuman ishtirokchilarini o‘rnatilgan tartibda sertifikatlar bilan ta‘minlashni amalga oshirsin;

anjumanni o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha sarf-xarajatlar (Toshkent va Buxoro shaharlarida chet ellik olimlar uchun mehmonxonalar, ovqatlanish va vizalar uchun telex xarajatlari, Toshkent-Buxoro-Toshkent temir yo‘l chiptalar xarajatlari, ilmiy to‘plam, tarqatma materiallar, transfer xizmatlari, esdalik

sovg'alar va suvenirlar xarajatlari) Buxoro davlat tibbiyot instituti, Ibn Sino jamoat fondi va homiylar mablag'lari hisobidan qoplanishi nazarda tutilsin;

Sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yuritadigan mahalliy ma'ruzachilar (ilovaga muvofiq) o'z ish joylaridan safarbar etilsin va ularning safar (yo'l, mehmonxona va ovqatlanish) xarajatlari qoplab berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son qarori bilan tasdiqlangan "Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalari"ga muvofiq o'tkazilishi va anjuman o'tkazilganligi to'g'risida hisobotni **3 kun muddatda** Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasiga taqdim etilishi ta'minlansin.

5. Tadbir bo'yicha ommaviy axborot vositalari orqali yoritish Matbuot xizmati F.Sanayevga yuklansin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar rahbarlari ilovaga muvofiq anjuman ishida qatnashish uchun mutaxassislar ishtirokini ta'minlasin.

7. Ushbu ko'rsatma xat ijrosining nazorati Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i O'.Ismailov zimmasiga yuklansin.

Vazirning birinchi
o'rinbosari



A. Boboyev